

Bobur nomidagi Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya xizmati

*Tursinoy Sodiqova
tavalludining
80 yilligiga*

O'ZBEK OYIMI EDI



Andijon -2024

KIRISH

Poeziya-shoirning hayot bilan dramatik uchrashuvidan chaqnagan jozibali uchqundir. Albatta, XX asr she'riyatida mumtoz adabiyotdagi san'atlar - ma'naviy san'atlar, lafziy san'atlar kam uchraydi. Bu davr she'riyatining asl go'zalligi shoir yuragida kechgan rango-rang tuyg'ularning yorqin so'ziy ifodasidir. Ular hayotiy realizmning kuchli ifodalanishida ko'rindi. Adabiyot fani - dunyoda eng insonparvar fan, kimki unga mehr qo'yibdi, shoir bo'lmasa ham, shoirtabiat, insonparvar odam bo'lishi aniq.

Yaxshi she'r orombaxsh kuydek kishiga huzur bag'ishlaydi. Tuyg'ularni qitiqlab, orzu- o'ylarga, hayollarga yetaklaydi.

Andijonlik taniqli shoir, adiba, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Tursunoy Sodiqovaning shoirlik iste'dodi bilan mohir pedagoglik faoliyati omuhtalashib, uning she'riyati va tiniq mulohazalari bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ma'naviyat, axloq-odob va milliy qadriyatlarimizga doir mavzular uning ijodiy faoliyatida asosiy magistral yo'lga aylandi. Davra suhbatlari bora-bora uni voizlikka sayladi.

Uning hayotiy tajribalardan kelib chiqqan xulosalari va jo'shqin histuyg'ularga yo'g'rilgan suhbatlari so'z minbarida mo'jizalar yarata olishini ta'kidlab turadi.

Tursinoy Sodiqova tavalludining 80 yilligi munosabati bilan tuzilgan ushbu bibliografik ko'rsatkich keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan bo'lib, u quyidagi bo'limlardan iborat:

- Kirish
- Ko'ngil kuychisi
- Ismlar ko'rsatkichi
- Mundarija.

Qo'llanmaga Bobur nomidagi Andijon viloyati axborot-kutubxona markazining kitob fondidan o'rin olgan adabiyotlarning ro'yxati hamda O'zbekiston Respublikasi matbuot solnomasida berilgan shoiraning asarlari haqidagi ma'lumotlar kiritilgan. Adabiyotlar ro'yxati 1968-2019 yillar - xronologik tartibda taqdim etilgan.

KO'NGIL KUYCHISI



Tursunoy Sodiqova 1944 yil 22 dekabrdan Andijon shahrida tug'ilgan. Bu yillar Yevropada misli ko'rilmagan qirg'in-barot urush ketayotgan tarixiy yillar edi. Bolalikning musaffo havolarini simirib, kamtargina bo'lsa ham, keldi-ketdili, gavjum oilada katta bo'ladi. Yetti yoshida mahalladagi 82-o'rta maktabga o'qishga borib, uni 1961 yilda bitiradi. Maktabni hamma fanlardan yaxshi va a'lo baholar bilan tugallaydi.

Tursunoy opaning dastlabki she'riy mashqlari maktabda o'qib yurgan paytlarida "Lenin uchquni"-bolalar gazetasida ko'rina boshlagan. Uning kitobga bo'lgan qiziqishi esa ta'rifga sig'masdi. Adabiyotga bunday oshuftalik, so'z san'atining sirli olamiga bo'lgan mubtalolik keyinchalik uning murg'ak qalbida, o'zi bilmagan holda, g'unchalab, shonalab ketgani turgan gap.

1961 yil Tursunoy Sodiqova Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetiga hujjatlarini topshirib, imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tib, sirtqi bo'limga qabul qilinadi. Toshkentdek shahri azimda o'sgan, kitob va she'riyatga mukkasidan ketgan Tursunoyning keyinchalik yaproq yozib, gullab, shig'il mevalar bergen shoirlik iste'dodi adabiyot qozonida pisha boshladi.

Tursunoy Sodiqova o'zidan katta avlod Saida Zunnunova, E'tibor Oxunova, Sanobar Hasanova, Gulchehra Jo'raeva, Gulchehra Nurillaeva va ularning ketidan kelayotgan o'ziga tengqur Oydin Hojievalar bilan adabiyotga yelkama-elka, o'ziga xos ovoz bilan kirib kelgan shoiradir.

1966 yil universitetni a'lo darajada tugatgan qahramonimiz Andijonga qaytadi.

1966-1976 yillar uning hayotida juda sermashaqqat, biroq nihoyatda taasurotlarga boy sermazmun yillar bo'lgan. Bu davrda u turmushga chiqadi, birin-ketin to'rtta farzandi - ikki o'g'il, ikki qiz tug'iladi.

Tursunoy tabiatan sho'x-shodon, shavqu zavqqa bag'ri to'liq ayol. U hayotni, odamlarni, tabiatni, ona yurtini, she'riyatni, go'zallikni qattiq

sevadi va chuqur his qiladi. Ana shu muhabbat unga tuganmas, kuch-quvvat beradi.

Har qanday shoir o‘zi mansub bo‘lgan ona xalqining dardiga dardkash, g‘amiga sherik, shodligiga hamroh bo‘lgandagina haqiqiy ijodkorga aylanadi. Uning qulog‘i hamma vaqt xalqining ko‘ksida bo‘lib, uning yurak urishini doimo his qilib turgandagina elning g‘urur, vijdoniga aylanadi. SHu ma’noda 70 - yillarda o‘zining qator o‘tkir muammoli maqolalari bilan respublika matbuotida dadil chiqishlar qilgan, viloyat miqyosidagi har xil katta-kichik yig‘ilishlarda o‘z fikrlarini dadil o‘rtaga tashlayotgan fidokor ijodkorning 1979 yilda mashhur “Qog‘ozbozlik” she’ri yoziladi va shu she’r tiniq osmonda chaqmoq chaqqandek hammani hayratga soladi.

1976 yili uning “Kuy” nomli birinchi she’riy to‘plami adabiyotning somon yo‘lida porloq yulduzdek ko‘zga tashlanadi. SHoiraning bu majmuasidagi she’rlarining ko‘p qismi tabiatga, bahor, ona yurt manzaralari madhiga bag‘ishlangan. Uning “Tong”, “Sel quyadi”, “O‘rikzor gul to‘kmay”, “Gul fasli”, Yomg‘ir yog‘adi” kabi she’rlari hozirgi kunda ham o‘zining nafis tarovatini, azaliy ohorini saqlagan holda kitobxonlarning qalbini bahoriy hislarga to‘ldirib kelmoqda. Bu she’rlarda ona Vatanning takrorlanmas manzaralari shoir qalbigina ko‘rishi mumkin bo‘lgan noyob, yorqin ko‘rinishlarda suratlanadi.

Eru osmonga to‘lib ketgan anvoyi gullar hidi dimog‘imizga urilgandek bo‘ladi.

*Behi guli oq kapalak,
Quvlar uni shabboda.
Gulga to‘lmish yerus falak
Atir yog‘ar havodan.
Xushbo‘y jiyda yaprog‘ida
Kuy o‘qiyman xo‘p mayin.
Boqar o‘rik butog‘idan
Dovuchchasi xo‘mravib.*

- kabi nafis misralarni yaratish uchun nihoyatda o‘tkir nigoh, oshiq qalb kerakligini haqiqiy she’r muxlislari tushunishsa kerak.

Ma’lumki, har bir qalamkashning ijodida uning individual qiyofasini belgilaydigan bir turkum she’rlari bo‘ladiki, ularda ijodkorning shaxsi bilan bog‘liq kechinmalarni ko‘rish mumkin. Shu ma’noda shoiraning “Poezd o‘tar”, “Yomg‘ir yog‘adi”, “Armonlarim”, “Izhorsiz bayonlar” kabi she’rlari yurak iztiroblarining qog‘ozdagiligi dilgir naqshlaridir.

Haqiqatda ham yashash, yaratish ishqisi yana qalbida jo‘sish ura boshlagan shoira belni mahkam bog‘lab, yengni shimarib, hayotning to‘lqinli dolg‘alariga o‘zini otadi. Ana shundan so‘ng haqiqiy she’riy mo‘jizalar dunyoga keladi. Uning qulog‘i hamma vaqt halqining ko‘ksida bo‘lib, uning yurak urishini domo his qilib turgandagina elning g‘urur, vijdoniga aylanadi.


Shu ma’noda 70-yillarda o‘zining qator o‘tkir muammoli maqolalari bilan respublika matbuotida dadil chiqishlar qilgan, viloyat miqyosidagi har xil katta-kichik yig‘ilishlarda o‘z fikrlarini dadil o‘rtaga tashlayotgan fidokor ijodkorning 1979 yilda mashhur “Qog‘ozbozlik” she’ri yoziladi va shu she’r tiniq osmonda chaqmoq chaqqandek hammani hayratga soladi.

Tursunoy Sodiqovaning mehnat faoliyati o‘rta maktablarda dars berishdan boshlangan, keyinchalik Andijon Davlat chet tillar institutida, Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” markazida faoliyat ko‘rsatadi. U “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoniga ega.

Shoira ijodidagi eng salmoqli mavzulardan biri muhabbat, hijron, ayriliq mavzusidir. Ana shu ma’noda Tursunoyning she’rlarida ham yurak-bag‘rini kuydirib o‘tuvchi o‘tli hislarning yolqini ko‘zga tashlanadi.

Shuningdek, odob-ahloq mavzularida bitilgan maqolalarini “Andisha” (1988), “Mehrigiyo” (1989), “Baxtli bo‘ling” (1989), “Baxt nima?” (1994), “O‘zbek she’riyatidan an’ana va o‘ziga xoslik” kabi nomlar bilan to‘plam va qo‘llanmalar tarzida nashr ettirgan.

Tursunoyning lirik qahramoni juda kuchli va samimiy muhabbat egasi. Taqdirning shavqatsiz, loqayd ko‘r irodasi ikki sevishgan qalbni bir-biridan mosuvo qilgan.



Shoiraning “Bizning xatolar” she’ridan olingen misralarda o’sha o’tli armon, afsus va andishalari bizning ham yurak torlarimizni hazin chertadi. Uning “Gar ayriliq bo‘lmasyaydi”, “Gurkiragan quvonchlarim siz bilan to‘ldi”, “Ming suluvin kuydirgan”, “Boshqalarga o‘xsholmadik”, “Muhabbatim, kiming bo‘ldim meni?”, “Yomg‘irdan so‘ng”, “Mening aziz yuragim”, “Vasiyat”, “Ma’shum chora”, “Ko‘ksimdagি daraxt”, “Kuyganingiz yolg‘ondir”, “Yana paxtazorda”, “Atirguldekkina edim”, “O‘git” she’rlari ana shunday achchiq hijron va ayriliq haqidagi, o‘qiganki kishining qalbiga butun yuki bilan ko‘chib o‘tadigan umumbashariy darddir.

*Dardlarimiz buloq bo‘ldi, bag‘rimizda vulqonlar,
Tuyg‘ularga til bermadik na men o‘zim va na siz.
Bir-birovin izlab-bo‘zlab topishganlar-insonlar,
Bizlar tog‘miz, tog‘lar kabi zimdan nurab boryapmiz.*

Shoiraning muhabbat va hijron, visol va ayriliq haqidagi she’rlarini o‘qir ekanmiz, bu ishq-muhabbat deganlari qanday bir sehrli va qudratli kuch ekanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Uning tuyg‘ulari toshib, butun qalbi tabiat mo‘jizalariga oshufta bo‘lib, she’rdan, ijoddan boshqa narsani tamoman unutib gul fasli- bahorga qalbini keng ochib, bahoriy go‘zallikni shimirayotgan daqiqalarda yozilganga o‘xshaydi.

Haqiqatda ham yashash, yaratish ishqini yana qalbida jo‘sish ura boshlagan shoira belni mahkam bog‘lab, yengni shimarib, hayotning to‘lqinli dolg‘alariga o‘zini otadi. Ana shundan so‘ng haqiqiy she’riy mo‘jizalar dunyoga keladi.



Tursunoy Sodiqova 70-yillarning oxiri 80- yillardan boshlab “bola-chaqadan ozgina qo‘li bo‘shab” oliv o‘quv yurtlarida o‘qituvchilik qilish bilan birga shoira sifatida avvalo viloyatda, so‘ngra respublikamiz ning boshqa viloyatlarida ham kitobxonlar bilan uchrashuvlar o‘tkaza boradi. Albatta uning so‘zga ustaligi, chechanligi, har qanday davrani o‘ziga qaratib olish


qobiliyati talabalik yillarida ham sezilgan edi. Yig‘inlarda odamlarni qiziqtirgan, hayotda har qadamda duch kelinadigan, biroq to‘g‘ri yechimini topish qiyin bo‘lgan savollarning javobini kattaroq davralarda ochiq aytish zarurati tug‘iladi.

Tursunoy Sodikova 80 yillarning boshlarida ilmiy tadqiqot ishlari bilan ham jiddiy shug‘ullanadi va yuqori natijalarga erishadi.

90 - yillarning o‘rtalaridan boshlab Tursunoy Sodiqovaning ijodi falsafiy-didaktik yoki o‘zi ataganidek, badilar yaratish bosqichiga kiradi. 1996 yil Tursunoy Sodiqova Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat markazi”da bo‘lim mudiri sifatida ish boshlaydi. Tabiatan jonkuyar tarbiyachi, faol jamoatchi, el suygan shoira va so‘zga chechan voiz bo‘lganligidan bu yo‘nalishda butun salohiyatini ishga solib, mustaqilligimizni mustahkamlash uchun fidokorona mehnat qilishga kirishadi.

U ma’naviyat ishlari tashkilotchisi sifatida respublikada tuman ma’naviyat bo‘limlarini tashkil etishda qat’iyat ko‘rsatdi, ma’naviyatning fan sifaida o‘qitilishining amalga oshishida jonbozlik ko‘rsatganlardan biri bo‘ldi.

Xalqimizning boy tarixiy an’analalarini yaxshi bilgan, yoshlarimizning ilmga, bilimga chanqoqligini yaxshi his qilgan, kelgusida xalqimizning yuqori ma’naviyatli xalq bo‘lishini hamma narsadan yuqori qo‘yadigan shoiramiz bu borada qator go‘zal asarlar yaratdi. 1997 yilda “Mehr qolur”, 1998 yilda “Hazrati ayol”, 1999 yilda “Yoningdagi baxt”, keyingi yillarda “Bolam derman”, “O‘g‘lim senga aytaman”, “Qizlarga atalgan so‘zlar”, “Kelin bo‘lish ilmi”, “Rizolik izlab”, “Yashash tilsimi” nomli bir-biridan yaxshi badiiy-falsafiy asarlari dunyo yuzini ko‘rdi.



Yuqoridagi asarlar avval suhbat, nutq sifatida yuzlab anjumanlarda o‘qilib, obdon xalqning nazaridan o‘tgach, keyin kitob shaklida nashr etildi.

Tursunoy Sodiqovaning eng suyukli mavzularidan yana biri qaynona-kelin munosabatlaridir. Bu mavzu ham tobora ishlanib, sayqallanib darsliklarga tushadigan darajaga bormoqda.

Shu ma’noda “Hazrati ayol” hamda “Yashash tilsimi” kitoblaridagi oilaviy munosabatlarga bag‘ishlangan maqola, suhbatlarda, ayniqsa kelin, qaynona haqidagi fikr-mulohazalar doimo bizda dolzarb bo‘lib kelgan.

Tursunoy opaning kuyunchaklik va mulohazakorlik bilan olib borgan suhbatlari odamlarda yaxshi taasurot qoldirib, bu mavzudagi maslahat va o‘gitlarga ehtiyoj borligini ko‘rsatdi. Ma’naviy tarbiyaning hozirgi sharoitda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini butun aqli, shuuri bilan tushunib his qilgan muallif jamiyatning bir xujayrasi bo‘lmish oiladan, oilaning sofligi, uning mustahkam va barqaror bo‘lishi, oila a’zolarining bir-birlariga mehr-muhabbatli munosabatda bo‘lishlari, ulardan aqlli va go‘zal avlodlar paydo bo‘lishi haqida kuyunib, yonib gapiradi.

Katta yig‘inlarda, gazetalarda, radio - televidenie orqali og‘ishmay, shu mavzuda uzlucksiz gapi rayotgan va ko‘pchilikning ixlosini qozonayotgan shoira va voiz Tursunoy Sodikova bo‘ldi desak haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Uning jonli, xushta’b yoqimli suhbatlarini bugungi kunda faqat respublikamiz aholisi emas, balki qo‘shni Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmanistondagi qardoshlarimiz ham juda katta qiziqish bilan tinglaydilar.

Shoira bolalik olamini tark etib, dunyonidagi qila boshlagan kunlardan buyon o‘z xonardonida kuzatgan turli ayollar taqdirini, ularning erkak zoti hech qachon tushunib yetmaydigan o‘y-xayollarini, ba’zan quvonch to‘la, ba’zan achchiq alamlar o‘rtagan hayotini xotirida jonlantirgan.

Tursunoy Sodiqovaning eng sevimli mavzularidan biri ona mavzuidir. Har safar ona timsolining yangi-yangi qirralarini kashf qilib, bu betimsol mo‘jizaning fazilatlarini sanab ado qilolmaydilar. Shu jumladan biz asarlari haqida so‘z yuritayotgan shoira va taniqli voiz ham ona ta’rifiga qator-qator go‘zal she’rlar va keyinchalik qattaroq xajmdagi ham she’riy, ham nasriy ta’riflardan iborat “Jannatim onam” nomli qasida ham yaratgan. Shoira ona haqida kuylar ekan, hech kimni takrorlamaydi. Uning ona haqidagi she’rlari katta bir dard bilan, zo‘r zarb bilan yozilganligini his etish qiyin emas.

Umuman aytganda, shoira Tursunoy Sodiqovaning xoh nazmda, xoh nasrda bo‘lsin yozgan barcha asarlari o‘tli ilhom bilan yozilgan bo‘lib, fikrlari yorqin, tuyg‘ulari terandir.

Tursunoy opaning nasriy yozmishlari ma’naviyat va ma’rifatga oid lirik-didaktik suhbatlarida ham voizlik mahorati kitobdan kitobga olib borayotganligini sezmaslik mumkin emas. Suhbatlarning ko‘zga yaqqol tashlanadigan fazilati ularning og‘zaki tilimizga juda yaqinligidir. Suhbat sohibi ko‘pdan-ko‘p uchrashuvlarda tinglovchilar bilan yuzma-yuz muloqot qilib orttirgan boy tajribalari uning yozma nutqida ham o‘sha ohangda, o‘sha uslubda davom etadiki, tinglovchi-kitobxon voizning o‘ziga xos ovozini ham eshitib turgandek bo‘ladi.

Tursunoy Sodikovaning faqatgina shoira bo‘lmay, voizlik tomon katta odimlar bilan qadam tashlay boshlaganini ko‘rish mumkin. Buyuk jahongir Amur Temur, Muhammad Boburlar juda qisqa va biroq ta’sirchan nutq sohiblari bo‘lishgan. Voiz Koshifiy, Hasan Basriylar voizlikda maktab yaratgan insonlardir.

Bugungi kunda Tursunoy ham shu sohaning taniqli vakillaridan biriga aylandi. Uning 1996 yildan boshla yangi tashkil etilgan Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazida olib borgan faoliyatida undagi barcha imkoniyat qirralari namoyon bo‘ldi.

Tursunoy Sodikovaning 2001 yilda nashr etilgan “Bolam derman” kitobida “Ma’naviyat sabog‘i bugungi kunda nega kerak?” deb savol qo‘yadi va unga o‘zi shunday javob beradi:

“Sho‘ro zug‘umidan qutulgach, zudlik bilan o‘zimizdagi toza tomirlarni uyg‘otish, ma’naviy merosimiz bo‘lmish milliy qadriyatlarimizni yoshlarning qalbiga jo etish, o‘z yurtiga o‘zi egalikka yaraydigan, vatanni asrash, yaxshi inson bo‘lib, vijdonini o‘rtaga qo‘yib ish tutadigan avlodni tayyorlash zarurati tug‘ildi. Odamlarning ko‘zini ochish, ularning ma’naviy didini uyg‘otish kerakligi bilindi... Ma’naviy tarbiya bugungi kunda muolaja o‘rnidadir”.

Ma’naviy tarbiyaning hozirgi sharoitda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini butun aqli, shuuri bilan tushunib his qilgan muallif jamiyatning bir hujayrsasi bo‘lmish oiladan, oilaning sofligi, uning mustahkam va barqaror bo‘lishi, oila a’zolarining bir-birlariga mehr- muhabbatli munosabatda

bo‘lishlari, ulardan aqli va go‘zal avlodlar paydo bo‘lishi haqida kuyunib, yonib gapiradi.

Voiz va shoira barcha katta-kichik asarlarida ona tilimizning benihoya go‘zalligini, ifoda vositalarining mo‘lligini his qilib va undan mohir zargarlardek foydalanib go‘zal she’rlar va ajoyib suhbatlar yaratdi. Uning asarlarini o‘qir ekanmiz, so‘zlar nutq jarayonida toblanib, yarqirab yangi-yangi qirralarini namoyish qila boshlaydi. Uning jami suhbatlaridan atirgulning isi ufurib turadi! Va aytamizki, bu suhbatlar his tuyg‘ularga boyligi, ta’rif va tavsiflarning shoirona ifodasi kishining qalb torini chertib, unga go‘zal bir badiiy asar o‘qigandek ta’sir etadi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, shoira va adiba, bag‘ri keng o‘zbek oyimi 2017 yili vafot etdi. Uning yorqin xotirasi abadiy bo‘lib qolmoqda.



SHOIRANING ASOSIY ASARLARI

1. Содикова Т. Гул фасли : шеърлар / Турсуной Содикова ; масъул мухаррир Ҳ. Маҳмудова ; сўз боши муаллифи Б. Назаров. – Тошкент : О‘zbekiston, 2013. – 20 см.
2. Ж. 1. – 213 б. – 2000 нусха. – (муқовада).
3. Ж. 2 : Дилдаги дур. – 406 б. – Библиогр.: б. 404. – 2000 нусха. - (муқовада).
- 4 Ж. 3 : Ҳаёт тилсими : рисолалар. – 349 б. – 2000 нусха. – (муқовада).
- 5 Ж. 4 : Бахт қаерда... – 492 б. – 2000 нусха. – (муқовада)
6. Ж. 5 : Умрим маёклари : эсселар. – 389 б. – 2000 нусха. – (муқовада).
7. Содикова, Т. Гул фасли : шеърлар / Муҳаррир К. Рахимбоева. – Тошкент : Faafur Fулом нашриёти, 1981. – 52 б.
8. Содикова, Т. Гиря : шеърлар / Муҳаррир, М. Худоёров. – Андижон : Андижон нашриёти, 1993. – 80 б.

9. Содиқова, Т. Мехр қолур : Маънавият дарслари учун қўлланма / Муҳаррир А. Бобониёзов. – Тошкент: Мехнат нашриёти, 1997. – 152 б.
10. Содиқова, Т. Эл устозим : адабий талқинлар. – Тошкент : Маънавият, 1997. – 64 б.
11. Содиқова, Т. Ҳазрати аёл / Муҳаррир А. Бобров. – Тошкент : Фофур Гулом ном. адабиёт ва санъат нашриёти, 1999. – 184 б.
12. Содиқова, Т. Яшаш тилсими : эсселар. – Тошкент : Фофур Гулом ном. Адабиёт ва санъат нашриёти, 2004. – 192 б.
13. Содиқова, Т. Куёв бўлиш илми : Эсселар / Муҳаррир X. Юсупова. – Тошкент : Ислом университети нашриёти, 2005. – 34 б.
14. Содиқова, Т. Оға-инилик илми : эсселар / Муҳаррир X. Юсупова. – Тошкент : Ислом университети нашриёти, 2005. – 48 б.
15. Содиқова, Т. Қайнона бўлиш илми : эсселар / Муҳаррир X. Юсупова. – Тошкент : Ислом университети нашриёти, 2005. – 40 б.
16. Содиқова, Т. Яшаш тилсими : Эсселар . – Тошкент : F.Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006 . – 239 б. – 5000 нусха.
17. Содиқова Т. Атиргул иси / Муҳаррир Тўлқин Ҳайит. – Тошкент : Ўзбекистон, 2007. – 272 б.
18. Содиқова, Т. Жаннатим онам : (бадиалар) / Муҳаррир У. Урунов. – Тошкент : Davr press нашриёти, 2007. – 96 б. – (Шахс маънавияти). 1000 нусха.
19. Содиқова, Т. Нозик савол / Муҳаррир М. Тўйчиев. – Тошкент : Yangi nashr, 2007. – 134 б.
20. Содиқова Т. Аёлга қасида : Сайланма. – Тошкент: O'zbekiston, 2008. – 326 б. ; 20 см. – (муқовали). – 3000 нусха.
21. Содиқова, Т. Андижоннинг Солижони : Бадиалар / Муҳаррир X. Қодирова. – Тошкент : Davr press нашриёти, 2008. – 80 б.
22. Содиқова, Т. Андижоннинг Солижони : (бадиалар) . – Тошкент : Davr Press, 2008. – 79 б. – 5000 нусха (1-з-д. 3000 нусха).

23. Содиқова Т. Сўз сехри: (Бадиалар). – Тошкент: Davr Press, 2009. – 55 б.; 20 см. – 3000 нусха.
24. Содиқова, Т. Мұхаббат нима ? : (бадиалар) . – Тошкент : Davr Press, 2008. – 79 б. – (Шахс маънавияти). – 3000 нусха.
25. Содиқова, Т. Умр биттадир: эсселар. – Тошкент : Davr Press, 2010. – 111 б. – 3000 нусха.
25. Содиқова, Т. Қуёшларим, ойларим : эсдаликлар. – Тошкент : Davr press, 2011. – 158 б. – 3000 нусха.
26. Содиқова, Т. Бахт қаерда. – Тошкент : DAVR PRESS нашриёти, 2011. –128 б.
26. Содиқова ,Т. Дилдаги дур : саксон ҳадис талқини / Турсуной Содиқова ; Мұхаррир Ҳ. Маҳмудова. – Тошкент : Ғулом ном. нашриёт -матбаа ижодий уйи, 2012. – 275 б. – Библиогр.: б. 273. – 5000 нусха.
27. Содиқова Т. Ағылга қасида : сайланма / Турсуной Содиқова ; мұхаррирлар: С. Мирзааҳмедова, Б. Худоेрова. – Тошкент: O’zbekiston, 2013. – 326 б. – 3000 нусха.
28. Содиқова, Т. Келинлик илми : эсселар / Турсуной Содиқова ; маъсул мұхаррир Ҳ. Ражабова. – Түлдирилган нашри. – Тошкент : Davr press, 2014. – 64 б. ; 16 см. – (Оила тилсими). – 2000 нусха.
29. Содиқова Т. Қуевлик илми : эсселар / Турсуной Содиқова ; маъсул мұхаррир Ҳ. Ражабова. – Түлдирилган нашри. – Тошкент : Davr press, 2014. – 64 б. ; 16 см. – (Оила тилсими). – 2000 нусха.
30. Содиқова Т. Оға-инилик илми : эсселар / Турсуной Содиқова ; маъсул мұхаррир Ҳ. Ражабова. – Түлдирилган нашри. – Тошкент : Davr press, 2014. – 64 б. ; 16 см. – (Оила тилсими). – 2000 нусха.
31. Содиқова Т. Қайнаналик илми : эсселар / Турсуной Содиқова ; маъсул мұхаррир Ҳ. Ражабова. – Тошкент : Davr press, 2014. – 64 б. ; 16 см. – (Оила тилсими). – 2000 нусха.
32. Содиқова Т. Қайнаталик илми : эсселар / Турсуной Содиқова ; маъсул мұхаррир Ҳ. Ражабова. – Тошкент : Davr press, 2014. – 64 б. . – (Оила тилсими). – 2000 нусха.

SHOIRA IJODI ADABIY TO'PLAMLARDA

33. Содиқова Раъно. Армон суратлари: Шеърлар ва достон / [Сўз боши муаллифи Т. Содиқова]. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 111б.
- 34 Содиқова, Т. Рисолангни ўқияпман қайта-қайта: шеър // Замира Рўзиева. Сарчашма. – Тошкент, 2007. – Б. 3-4.
35. Содиқова, Т. Рисолангни ўқияпман қайта-қайта : шеър // Замира Рўзиева : танланган шеърлар ва достон. – Тошкент : Sharq, 2016. – Б. 275-276.
36. Содиқова, Т. Кенгга кенг дунё: Тўлан Низом ҳақида билғанларим // Замин ва замон қуйчиси: Тўлан Низом ижоди ҳақида. – Тошкент. – 2018. – Б. 166-170.

SHOIRA IJODIY FAOLIYATI VAQTLI MATBUOT NASHRLARIDA

37. Содиқова, Т. Йигирма беш йилки: [шеърлар] / Т. Содиқова // Коммунист. – 1968. – 2 апр.
38. Содиқова, Т. Яшаш суури ; Ёр-ёр. Дарға:[шеърлар] / Т. Содиқова // Коммунист. – 1986. – 14 март.
39. Содикова, Т. Табиати баҳор эди : [шоир Азимий ҳақида] / Т. Содиқова // Коммунист. – 1987. – 28 март.
40. Содиқова, Т. Уруш тарафларига очиқ хат : [шеър] / Т. Содиқова // Коммунист. – 1987. – 18 апр.
41. Содиқова, Т. Фахрия : [шеър] / Т. Содиқова // Коммунист. – 1988. – 9 апр.
42. Содиқова, Т. Дардларга қалқон бўлиб / Т. Содиқова, Р. Файзибоева // Коммунист. –1988. – 5 май.
43. Содиқова, Т. Диљдаги зорим болам / Т. Содиқова // Коммунист. – 1988. –18 авг.

44. Содиқова, Т. Аёлларга мактуб : [аёл назокати, меҳр-оқибат, хушмуомалалик, пазандачилик ва покизалик ҳақида фирмлари] / Т. Содиқова // Коммунист. – 1990. – 2 март.
45. Содиқова, Т. Андижон фарзандиман : [шеър] / Т. Содиқова // Коммунист. – 1990. – 2 март.
46. Содиқова, Т. Эл ўланчиси билан суюклидир : [Бўзлик шоир Раҳмонали Хайдаров ҳақида] / Т. Содиқова // Андижоннома. – 1992. – 5 март.
47. Содиқова, Т. Ноёб истеъдодли ғазалхон : [20 аср бошларида ижод қилган тоғаси Мавжий ҳақида] // Андижоннома. – 1992. – 5 дек.
48. Содиқова, Т. Йигитларга мактуб : [шеър] / Т. Содиқова // Саодат. – 1993. – № 4. – Б. 8.
49. Содиқова, Т. Фахрия : [“Андижоннинг аёли”; “Сиздан кейин...”; “Ёр-ёр”] / Т. Содиқова // Олтин водий. – 1994. – 5-20 авг.
50. Содиқова, Т. Андижонлик ойимлар: [шеър] / Т. Содиқова // Андижоннома. – 1994. – 20 дек. – Мундарижа : Тилак.
51. Содиқова, Т. Энди хотиралар ягона ганжим : [шеър] / Т. Содиқова // Ҳиссадор. – 1995. – 12 сент.
52. Содиқова, Т. Кўнглимдаги маржоним Ватан : [шоира билан сұхбат] // Тафаккур. – 1996. – № 2. – Б. 37-39.
53. Содикова, Т. Маънавиятни ким кандай тушунади? // Халқ сузи. –1998. – 10 апр.
54. Содикова, Т. “Дилимла гапларим кўп : [Респ. "Маънавият ва маърифат" жамоатчилик маркази бўлим мудири Т. Содикова билан сұхбат ; сұхбатдош Х. Туйманова] // Маърифат. –1998. – 30 дек.
55. Содиқова, Т. Эл ўзининг кимлигини танисин : [шеър] / Т. Содиқова // Андижоннома. – 1999. – 29 июнь.
56. Эл меҳрини қозонган адид : [Муҳаммад Юсуф ҳақидаги шеърлар, мақолалар] // Andijonnomma.–2001. – 5 сент. – Мундарижа : Таъзияда айтилган армонли дил сўзлари / Абдулла Орипов ; Энахон ая ноласи /

Маъмиржон Мадмусаев ; Ёр марсияси / Назира ас-салом ; Ялпизжон / Нельмат Ориф ; Осмон чўкиб қолди бу оқшом / Мұхаббат Отамирзаева ; У ҳеч қачон ўлмайди / Турсуной Содикова.

57. Содикова, Т. Соғинч : [шер] / Т. Содикова // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – 2003. – № 3. – Б. 37.

58. Ибайдуллаев, Ф. Биз кимни улғайтиряпмиз : [Турсуной Содикова билан сұхбат] / Ф. Ибайдуллаев // Ёғду. – 2006. – 19 окт.

59. Содикова Т. Отлар ўрнини тойлар боссин ёки Биз кимни улғайтиряпмиз? : [Респ. „Маърифатпарвар аёллар“ уюшмаси раиси Т. Содикова билан сұхбат ; О.Очилова сұхбатлашды] // Маърифат. – 2006. – 4 окт.

60. Содикова, Т. Яшаш тилсими: [шер] / Т. Содикова // Тасвир. – 2008. – № 14. – Б.12.

61. Содикова, Т. Ҳимматнинг фазилати улуғ : [шер] / Т. Содикова // 7x7. – 2008. – 6 апр.

62. Содикова Т. Мехрнома / Андижоннинг азиз қизи А. Ғиёсованинг ёруғ хотирасига // Andijonnomma. – 2008. – 7 май.

63. Содикова , Т. Мұхаббат нима? : Дебоча // Талабалар дунёси. – 2008. – № 1. – Б. 22–23.

64. Содикова , Т. Юзинг ёруғ бўлсин : [“Мұхаббат нима?” китобидан] / Т. Содикова // Бекажон. – 2008. – 29 май. – 5 июнь ; 12 июнь ; 19 июнь ; 10 июль ; 31 июль. – Мундарижа : Мұхаббат ва рўзгор ; Ўзингга сабрли ёр тила ; Қайнонангни алдама ; Шаън булғанган жойда ; Биринчи ўринда онасиз.

65. Содикова, Т. Хонободлик саркарда: [хоким Солижон Мехмонов ҳақида] / Т. Содикова // Бекажон. – 2008. – 18 сент. – Б. 9. – Мундарижа : Ваъдамда турмасам.

66. Содикова , Т. “Писта” деса сесканаман ... : [“Андижоннинг Солижониси” китобидан] / Т. Содикова // Бекажон. – 2008. – 9 окт. ; 23 окт. ; 30 окт. ; 13 нояб; 20 нояб ; 4 дек ; 11 дек.; 18 дек. ; 25 дек. - Мундарижа: Келбатлари кўзимда қолган ; Юрагинг қалбинг қани ? ; Сизга сирни айтсам; Бошқаларга навбат тегадими? ; Бизга нима хизмат ; Саҳийга саҳий эди ; Мехнат қилганни ҳурмат қиласди ; Ҳар

куни янги иш ; Эл етаклаш сирлари ; Кўнгил меҳрдан, сўздан сув ичар экан ; Москвани лол қилган Солижон ака.

67. Содиқова, Т. Адирга юриш: [Хонободнинг Солижони] / Т. Содиқова // Бекажон. – 2009. – 1 янв. ; 5 февр ; 12 февр. – Мундарижа: Туя олгандай бўлдим; У нега ёниб яшади; Солижон боғбон қани?. - Мундарижа: Келбатлари кўзимда қолган ; Юрагинг қалбинг қани ? ; Сизга сирни айтсам; Бошқаларга навбат тегадими? ; Бизга нима хизмат ; Саҳийга сахий эди ; Меҳнат қилганни хурмат қиласади ; Ҳар куни янги иш ; Эл етаклаш сирлари ; Кўнгил меҳрдан, сўздан сув ичар экан ; Москвани лол қилган Солижон ака.

68. Содиқова, Т. Мұхаббат нима? / Т. Содиқова // Холис. – 2008. – 24 сент; 1 -29 окт; 5-26 нояб ; 3 дек.

69. Содиқова, Т. Ўғлим сенга айтаман : [шеър] / Т. Содиқова // Andijonnomma. – 2009. – 6 март.

70. Содиқова, Т. Буюклик тахти / Т. Содиқова // 7x7. – 2008. – 13 март.

71.Содиқова, Т. Ким ҳамиша бой: [муштариylар йўллаган саволларни ўқиб] / Т. Содиқова // Бекажон. – 2009. – 19 март.

72. Содиқова, Т. Қизларга аталган сўзлар // Холис. – 2010. – 6-27 янв.

73. Содиқова, Т. Яшаш тилсими / Т. Содиқова // Холис. – 2010. – 31 марта; 7-21 апр; 5-12 май; 2-30 июнь; 7-28 июль ;11 -25 авг ; 8-29 сент ; 6-12 окт.

74. Содиқова, Т . Келиннинг олдида болангизни уришманг: [шарқона тарбия] / Т. Содиқова. – 2010. – 5 авг. – Б. 10.

75. Содиқова, Т. Ихлос улғайишга етаклайди : [муштариy саволларини ўқиб] / Т. Содиқова // Бекажон. –2010. – 19 авг.

76. Содиқова, Т. Сўз сехри // Холис. – 2010. – 20-27 окт; 10-24 нояб;

77.Содиқова Т. Умр биттадир //Холис. – 2010. – 1-22 дек.

78.Содиқова , Т. Аёлнинг бошида мингта иш / Т. Содиқова // Бекажон. – 2011. – 10 февр. – Б. 10.

79. Содиқова, Т. Мунглиларнинг дуосини олинг : [муштарийларнинг саволларига жавоб] / Т. Содиқова // Бекажон. – 2011. – 24 март . – Б.10.
80. Содиқова, Т . Нега яхши одамнинг фарзанди ноқобил бўлади: [шарқона тарбия] / Т. Содиқова // Бекажон. – 2011. – 10 март. – Б. 10.
- 81.Содиқова, Т. Тузлукқа тупурма : [шарқона тарбия] / Т. Содиқова // Бекажон. – 2011. – 7 апр.
- 82.Содиқова, Т. Андиша : [охорини йўқотмаган сатрлар] / Т. Содиқова // Холис. – 2015. – 15 янв.
83. Содиқова, Т. Юрак ва ақл биргаликда бўлсин [Андиша ҳақида] / Т. Содиқова // Холис. – 2015. – 4 февр.
84. Содиқова, Т. Ўзбек ойим : [2015 йил Кексаларни эъзозлаш йили] / Т. Содиқова // Иқбол. – 2015. – 19 март.
85. Турсуной, Содиқова.Азиз бўлиш илми :[қизларга маслаҳатлар] / Т. Содиқова // Саодат. – 2015. – №1. – Б. 24.
86. Содиқова, Т. Гул фасли: [шеър] / Т. Содиқова // Guliston. – 2015. – № 2. – Б. 15.
87. Содиқова, Т. Муборак тахт : [Оила муқаддаслиги, унда эрқак ва аёлнинг тутган ўрни тўғрисида] / Т. Содиқова // Paxtakor. – 2018. – 1 июнь.
88. Содиқова, Т. Адолатли бўла оласизми? : [қўш хотинлилик ҳақида] / Т. Содиқова // Paxtakor. – 2019. – 14 янв.
89. Содиқова, Т. Садаканг ўзингга соядир : [Турсуной Содиқовадан ибратли сўзлар] / Т. Содиқова // Paxtakor. – 2019. – 25 янв.
90. Содиқова, Т. Пушаймонни ўлмга тақама : [Пушаймонлик ҳақида] / Т. Содиқова // Paxtakor. – 2019. – 19 апр.
91. Содиқова, Т. Суяниб яшашнинг роҳати : [Турсуной Содиқованинг ўғитлари] / Т. Содиқова // Paxtakor. – 2019. – 8 февр.
92. Содиқова, Т. Оналик олий мартаба : [Оналик ҳақида] / Т. Содиқова // Paxtakor. – 2019. – 6 март

93. Содиқова, Т. Кўнгил тўқлиги нима? : [Бойлик молнинг кўплигига эмас балки кўнгилнинг тўқлигидадир] / Т. Содиқова // Paxtakor. – 2019. – 15 марта.
94. Содиқова, Т. Шахснинг кайфияти : [Турсуной Содиқова ўгитлари] / Т. Содиқова // Paxtakor. – 2019. – 28 марта.
95. Содиқова, Т. Муроса мадордир : [Муроса ҳақида] / Т. Содиқова // Paxtakor. – 2019. – 5 апр.
96. Содиқова, Т. Қошимга ўсма қўйинглар : [ўгитлар] / Т. Содиқова // Paxtakor. – 2019. – 22 май.
97. Содиқова, Т. Сочар деразалар қоқ тунда ёғду : [шеърият гулшани] / Т. Содиқова // Andijonnomma. –2019. – 4 дек.

SHOIRANING IJODIY FAOLIYATI HAQIDA:

98. Йўлдошев, Т. Атиргулга айланган умр : Турсуной Содиқова ҳаёти ва ижодига бир назар. – Тошкент : Davr Press, 2008 . – 95 б. – 5000 нусха.
99. Турсуной Содиқованинг икки шеърий тўплами ҳақида ўйлар // Халим Карим. Туйгулар. – 1988. – Б. 16-19.
100. Шоира Турсуной Содиқова // Андижонлик шоир ва ёзувчилар. – Андижон : Ҳаёт. – 2004. – Б. 76 – 82.
101. Турсуной Содиқова // Мирвалиев С. Ўзбек адиллари. – Тошкент. – 1993. – Б. 201-202.
102. Турсуной Содиқова // Фани Мажид. Мен билган Андижонлик ижодкорлар. – Андижон, 2014. – Б.64-65.
- 103.Турсуной Содиқова // Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиллари. – Тошкент. – 2016. – Б. 246-248.

VAQTLI MATBUOT NASHRLARIDA

104. Қизиқарли учрашувлар : [шоира билан 37-мактабдаги учрашув] // Коммунист. – 1988. – 7 май.
105. Фозилий, Зафар. Тошни ёрат мисралар : [Шоира Турсуной Содикова назмига бадиа] / Зафар Фозилий // Андижоннома. – 1993. – 9 июнь.
106. Барноев, С. Юракда гуллаган самимият: [шоира 50 ёшда] / Сафар Барноев // Бекажон. –1994 . – 20 дек.
107. Кўнгил кўйчиси : [Турсуной Содикова 50 ёшда] // Андижоннома. – 1994. – 20 дек. – Мундарижа : Қимматли Турсиной / Абдураҳим Тўймуродов; Ҳайрат / Мухаббат Отамирзаева.
108. Турдиалиев, И. Шоира баҳти: [Турсуной Содикова таваллудининг 50 йиллигига] / И. Турдиалиев // Андижоннома. – 1994. – 22 июль.
109. Куйингиз куйса ҳам, кулиб каранглар : [Турсуной Содикова билан учрашув] // Андижоннома. – 1994. – 4 янв.
110. Наби, Жалолиддин. Турсуной Содикова : [Софиниб кўришадиган халқни топдим] // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1994. – 26 авг.
111. Йўлдошев, Т. Андижон булбули : [Шоира Турсуной Содикова ижодий фаолияти ҳақида] / Т. Йўлдошев // Олтин водий . – 1994. – № 1. – Б. 5-20.
112. Сулаймонова, Н. Баҳт нима? : [Турсуной Содикованинг китоби ҳақида] / Н. Сулаймонова // Ўзбекистон матбуоти. – 1995. – № 2. – Б. 119.
113. Кўнглимдаги маржоним Ватан : [Шоира Турсуной Содикова билан сұхбат] // Тафаккур. – 1996. – № 2. – Б.37-39.
114. Абдуллаева, Қ. Ибрат китоби : [Турсуной Содикованинг “Ибрат” номли китоби ҳақида] / Қ. Абдуллаев // Маърифат. – 1998. – 17 янв.
115. Содикова, Т. Уйнинг фариштаси // Гулистон. – 1998. – № 6. – Б. 34-35.

116. Эл устозим мен эсам толиб : [Турсуной Содикова билан сұхбат] // Дилкаш. – 2004. – №14. – Б.9
117. Шоиранинг таржимаи ҳоли :[Т. Йўлдошевнинг “Атиргулга айланган умр” китоби ҳақида] // Холис. – 2009. – 22 апр.
118. Эрматов, Э. “Аслини ардоқлаган юрт асло кам бўлмайди : [Турсуной Содикова билан сұхбат] / Э. Эрматов // Олтинкўл. – 2010. – 19 март.
119. Шоира Турсынай, Содикова : [Ўзбекистонда хизмат қўрсатган маданият ходими] // Жаннатмакон. – 2011. – февр.
120. Назаров Б. Кўнгилки бор, ўзи бир “чўли ироқ” : [Турсуной Содикованинг ижодида руҳий портрет] // Sharq yulduzi. – 2014. – № 4. – Б. 185–189.
121. Ўзбекистон хизмат қўрсатган маданият ходими, шоира ва адаба Турсынай Содикова // Andijonnomma. – 2017. – 18 янв.
122. Восит, Аҳмад. Бағри кенг опа : [ҳассос шоира Турсынай Содикова - некролог] / В. Аҳмад // Xolis. – 2017. – 27 янв.
123. Алиева, З. Ўзбек ойим эди: [Турсуной Содикова ҳақида] / З. Алиева // Саодат. – 2017. – № 2. – Б. 16
124. Хакимов, К. Тарбия ва одоб: [шоира Турсынай Содиковани эслаб] / К. Хакимов // Холис. – 2017. – 1 май.

TURSUNOY SODIQOVAGA BAG'ISHLOVLAR

125. Турсынайга // Тўлан Низом. Андижондан Салом: шеърлар, таржималар. – Андижон : Andijon nashriyot-matbaa, ОАЖ, 2008. – Б.30-31.
126. Назмаро бир тўлган ойим (булбулзабон шоира Турсынай Содиковага) // Омина Тожибоева. Сайланма 3-жилд. – Тошкент: Navro‘z нашриёти, 2015. – Б. 61.
127. Йиглади : марсия // Мунаввара Тиллабоева. Девон : шеърлар ва достон. – Тошкент : Yosh avlod matbaa, 2023. – Б. 160.

* * * * *

128. Нажмий, Зиё. Опа : [Турсуной Содикова таваллудининг 50 йиллигига шеър] / Зиё Нажмий // Олға. – 1994. – 12 июль.

129. Рўзиева, З. Дил сўзи: [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 1994. – 20 дек. – Б. 4.

130. Бўтаева, Ф. Соғинч : [шеър] / Фарида Бўтаева // Андижоннома. – 1994. – 20 дек.

131. Хошимова, Ф. Андижон булбули : [Турсуной Содиковага аталган шеър] / Ф. Хошимова // Iqbol. – 2010. – 16 сент.

132. Алиева, З. Дилларда алам қолди... : [Т. Содиковага шеър] / З. Алиева // Саодат. – 2017. – № 2. – Б. 17

133. Низом, Тўлан. Ёд этиб... : [Турсуной Содикова хотирасига шеър] / Тўлан Низом // Andijonnomma. – 2017. – 25 февр.

134. Тошхўжаева, Ф. Илми уммон, сўзи маржон эди : [устоз Турсуной Содикова хотирасига шеър] / Ф. Тошхўжаева // Iqbol. – 2017. – 4 май.

ISMLAR KO'RSATKICHI

Содикова Турсиной 1-134.

Абдуллаева, К. 114.

Алиева, З. 132. 123.

Аҳмад, Восит - 122.

Барноев, С. 106.

Бўтаева, Ф. 130

Жалолиддин , Наби 110.

Зафар, Фозилий 105.

Йўлдошев, Т. 98. 111.117.

Карим, Халим - 99.

Мажид, Ғани. 102

Мирвалиев, С 101, 103.
Назаров Б. 120.
Нажмий, Зиё. 128.
Низом, Тўлан. 125. 133.
Отамирзаева Муҳаббат - 106.
Рўзиева, З. 129.
Сулаймонова, Н. 112.
Тиллабоева.Мунаввара 127.
Тожибоева Омина 126.
Тошхўжаева, Ф. 134.
Турдиалиев, И. 108.
Тўймуродов Абдураҳим -106 ;
Хакимов, К. 124.
Шокирова Р - 103
Хошимова, Ф 131.
Эрматов, Э. 118.

MUNDARIJA

Kirish	2
Ko‘ngil kuychisi	3
Shoiraning asosiy sarlari	10
Shoira ijodi adabiy to’plamlarda	13
Shoira ijodiy faoliyati vaqtli matbuot nashrlarida	13
Shoiraning ijodiy faoliyati haqida	18
Vaqtli matbuot nashrlarida	18
Tursunoy sodiqovaga bag’ishlovlар	21
Ismlar ko‘rsatkichi	22

Атиргулга айланган умр : библиографик кўрсаткич / тузувчи З.
Шахобиддина, Ш. Шакирова. – Андижон, 2024. – 24 б.